



INVESTITSIYALAR, BANK VA SAVDO SOHALARIDA
KASBIY MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH
BO'YICHA TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART

ZARGAR



“Zargar” kasbiy standarti Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” va Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrdagi 55-son buyrug’i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga asosan Investitsiyalar, bank va savdo sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

Mazkur kasbiy standartni ishlab chiqish jarayonida Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti tomonidan tashkiliy hamda uslubiy ko’mak ko’rsatilgan.

Zargar

I. Umumiy ma'lumotlar

1. Ushbu Kasbiy standart "Zargar (zargar-modelyer)", Zargar-bilaguzukchi, "Zargarlik buyumlar bo'yicha usta" va "Zargar-zanjir yasovchi" kasblari bo'yicha ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda, kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni boshqarish, malaka oshirish va ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish sohasida keng ko'lamli vazifalarni hal qilishda qo'llaniladi.

2. Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

DACUM (Developing a Curriculum) – korxonaning tajribali xodimlaridan iborat ekspert guruhlarida tuzilgan guruh muhokamalarini o'tkazish usuli;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi — kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni

mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli.

Zargar – qimmatbaho metallar (oltin, kumush, platina va boshqalar) hamda toshlardan turli xil bezak buyumlari yasovchi mutaxassis.

Tosh kesuvchi – qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlarni (brilliant, yoqut, zumrad, aqiq va boshqalar) shakllantirish, silliqlash va sayqal berish bilan shug'ullanuvchi mutaxassis.

Qimmatbaho toshlarni o'rnatuvchi – zargarlik buyumlariga toshlarni o'rnatish ishlarini bajaruvchi mutaxassis.

Qimmatbaho metallar – oltin, kumush, platina va ularning qotishmalari bo'lib, zargarlik buyumlarini yasashda asosiy material sifatida ishlatiladi.

Qimmatbaho toshlar – Zargarlik buyumlari ishlab chiqarishda ishlatiladigan tabiiy olmoslar, yoqutlar, zumradlar, sapfirlar, aleksandritlar, xom va qayta ishlangan tabiiy marvaridlar va boshqa sun'iy toshlar.

Qimmatbaho metallardan va qimmatbaho toshlardan yasalgan zargarlik hamda boshqa buyumlar — zeb-ziynat, maishiy hamda diniy ashyolar sifatida qo'llaniladigan, qimmatbaho metallardan va ularning qotishmalaridan yasalgan hamda ushbu Qonunda belgilangan eng past asillik darajalaridan kam bo'lmagan asillik darajalariga ega bo'lgan, shu jumladan bezakli ishlov berishning har xil turlaridan foydalanilgan, qimmatbaho toshlar va boshqa materiallar o'rnatilgan yoki o'rnatilmagan holda yasalgan buyumlar yoxud tabiiy yoki sun'iy materiallardan yasalgan, bezakli ishlov berishning har xil turlaridan foydalanilgan, qimmatbaho toshlar o'rnatilgan holda yasalgan buyumlar (uzuk, sirg'a, marjon, bilaguzuk, bros, soat qobig'i va hokazo).

Zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish texnologiyasi — bu ishlov berish, shakllantirish, o'yma, payvandlash, abrazivlash, o'rnatish va pardoqlashning texnologik jarayonlari to'plamidir.

Proba (metall tozaligi) – zargarlik buyumidagi qimmatbaho metallning sof miqdorini bildiruvchi belgi.

Zargarlik asbob-uskunalar — metall va toshlar bilan ishlash uchun qo'llaniladigan maxsus vositalar: bolg'acha, payvand apparati, silliqlash mashinasi, lupa, mikroskop, kesuvchi disk, qoplama vositalari va boshqalar.

Zargarlik dizayni – buyum shakli, naqshi, o'lchami va bezak elementlarini badiiy jihatdan loyihalash jarayoni.

Model (andaza) – zargarlik buyumi tayyorlanishidan oldin ishlab chiqiladigan nusxa yoki chizma.

Silliqlash va sayqallash – metall va tosh sirtini tekislash, yaltiratish, jilosini oshirish jarayoni.

Payvandlash (lehmlash) – metall qismlarni bir-biriga biriktirish texnologik jarayoni.

Zargarlik sinovi va sifat nazorati – tayyor mahsulotning proba, tosh oʻrnatish sifati, mustahkamlik va tashqi koʻrinishini tekshirish jarayoni.

Zargarlik materiali – qimmatbaho metallar, qotishmalar, toshlar, emal, lak, boʻyoq va boshqa yordamchi materiallar.

Qotishma – turli metallar aralashmasidan hosil qilingan, zargarlikda ishlov berishni yengillashtiruvchi material

Zargarlik buyumlari dizayneri — bu mahsulotlar uchun badiiy yechimlarni ishlab chiqadigan mutaxassis.

Zargarlik ustaxonasi – zargarlik buyumlarini tayyorlash, taʼmirlash va sinovdan oʻtkazish uchun jihozlangan ish joyi.

Brend (zargarlik markasi) – muayyan zargar yoki ishlab chiqaruvchi tomonidan tayyorlangan mahsulotlarning nomi yoki savdo belgisi.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos boʻlgan normativ-huquqiy hujjatlar:

Oʻzbekiston Respublikasining 2021 yil 23 avgustdagi “Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar toʻgʻrisida”gi OʻRQ-710-son Qonuni.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18 maydagi “Oʻzbekiston Respublikasida zargarlik tarmogʻini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-5721-son Farmoni.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 23 iyuldagi “Zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish sohasini yanada rivojlantirish va ularning raqobatbardoshligini taʼminlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-104-son Farmoni.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 oktyabr “Mehnat bozorini rivojlantirish va aholi bandligini taʼminlash toʻgʻrisida”gi PQ-4857-son Qarori;

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 22 fevraldagi “Zargarlik sanoatini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-4998-son Qarori.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 23 dekabrda “Zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va mahalliy zargarlarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-452-son Qarori.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 25 aprel “Taʼlim tizimini isloh qilish va malakali kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirish toʻgʻrisida”gi PQ-135-son Qarori;

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 30 sentyabr “Oʻzbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-345-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 26 iyundagi "Zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish sohasini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-207-son Qarori.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 24 avgust 275-son "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori (IFUT-2);

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 25 fevraldagi "Faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun vakolatli organni xabardor qilish tartibi to'g'risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida"gi VMQ-88-son Qarori.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 15 mart "Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va tasdiqlash tartibi to'g'risida"gi 112-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2022 yil 10 iyun "Tarmoq malaka ramkalarini shakllantirish tartibi to'g'risida"gi 45-son buyrug'i;

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi (2022 yil 30 apreldagi O'RQ-764-son qonun bilan tasdiqlangan redaksiya);

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo'llaniladi:

MMR – Milliy malaka ramkasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

IFUT – Iqtisodiy faoliyat turlarining umumiy tasniflagisi.

MMK – Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi	Zargar	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi	Qimmatbaho metall va toshlardan yuqori sifatli zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish, taʼmirlash, modellashtirish va oʻrnatish, shuningdek, mijozlarning individual talablariga muvofiq estetik va funksional mahsulotlar yaratish.	
3.	IFUT boʻyicha seksiya, boʻlim, guruh, sinf va kichik sinf	Seksiya: C – Ishlab chiqaradigan sanoat 32 – Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish. 32.1 – Zargarlik buyumlari, bijuteriya va unga oid mahsulotlar ishlab chiqarish. 32.12 – Zargarlik buyumlari va shu kabi buyumlar ishlab chiqarish. 32.12.0 – Zargarlik buyumlari va shu kabi buyumlar ishlab chiqarish.	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni	Ushbu kasbiy standart zargarlik sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislarning bilim, koʻnikma va malakalarini belgilaydi. U qimmatbaho metall va toshlar bilan ishlash, zargarlik buyumlarini modellashtirish, ishlab chiqarish, oʻrnatish va taʼmirlash jarayonlarini oʻz ichiga oladi.	
5.	Qamrab olingan kasblar roʻyxati va malaka darajasi	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		73131003 — Zargar (zargar-modelyer)	3
		73131006 — Zargarlik buyumlar boʻyicha usta	3
		73131004 — Zargar-bilakuzukchi	3
		73131002 — Zargar (umumiy yoʻnalish)	3
		73131014 — Zargar-zanjir yasovchi	3

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	kodi va nomi	Kodi va m/d	nomi	kodi	nomi
1	73131003 — Zargar (zargar- modelyer)	A1.3	Zargarlik buyumlarining dizaynini ishlab chiqish	A1.01.3	Zargarlik buyumlarining eskizlarini chizish, 3D modellashtirish dasturlari (Matrix va MatrixGold, CAD, Rhino, yoki ZBrush) orqali dizayn ishlab chiqish
				A1.02.3	Mijozning individual talablariga muvofiq dizaynni takomillashtirish, material va byudjet chegaralarini hisobga olish
		A2.3	Prototiplar yasash va dizaynni amalga oshirish	A2.01.3	Zargarlik buyumlarining prototiplarini tayyorlash (mum modellari, 3D-printer yordamida plastik modellar)
				B2.02.3	Dizaynda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va qayta ishlash, dizaynning estetik, ergonomik va texnologiya jihatidan talablarga mosligini ta'minlash
2	73131006 — Zargarlik buyumlar bo'yicha usta	B1.3	Zargarlik buyumlari ishlab chiqarish va ta'mirlash	B1.01.3	Murakkab zargarlik buyumlarini (masalan, ko'p qatlamli taqinchoqlar, inkrustatsiyali uzuklar) loyihalashtirish va ishlab chiqarish
				B1.02.3	Yuqori darajadagi individual buyurtmalarni bajarish, mijoz bilan yaqin hamkorlikda ishlash
		B2.3	Zargarlik buyumlari ishlab chiqarish	B2.01.3	Zargarlik buyumlarining ishlab chiqarish jarayonini boshqarish, ustalar guruhini muvofiqlashtirish
				B2.02.3	Tayyor zargarlik buyumlarining sifatini kompleks tekshirish (mustahkamlik, estetika, standartlarga muvofiqlik)

3	73131004 — Zargar- bilakuzukchi	D1.3	Bilakuzuk yasash	D1.01.3	Bilaguzuklar (bilak uzuklar) va boshqa zargarlik buyumlarini qimmatbaho metallardan tayyorlash, bezash, sifatli va estetik jihatdan yuksak mahsulot yaratish
				D1.02.3	Qolip tayyorlash, kesish, eritish va quyish jarayonlarini bajarish, bilak uzuk shaklini berish, sayqallash ishlarini olib borish
		D2.3	Zargarlik mahsulotlari bezash (bilak uzuklar)	D2.01.3	Qimmatbaho metallardan yasalgan bilak uzuklar hamda boshqa zargarlik buyumlarini bezash, naqsh tushirish, tosh oʻrnatish va mahsulotning estetik koʻrinishini takomillashtirish orqali yuqori sifatli tayyor mahsulot yaratish
				D2.02.3	Qimmatbaho toshlar, shishalar yoki boshqa bezak elementlarini oʻrnatish va mahkamlash, buyumlarni sayqallash, pardozlash va shu kabi boshqa ishlarini amalga oshirish
4	73131002 — Zargar (umumiy yoʻnalish)	E1.3	Zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish va mahkamlash	E1.01.3	Qimmatbaho metallarni (oltin, kumush, platina) eritish, quyish va shakllantirish (qoʻl usullari va zamonaviy uskunalar)
				E1.02.3	Toshlarni zargarlik buyumlariga maxsus usullar (qadoqlash, kanali oʻrnatish, shina oʻrnatish) orqali mahkamlash, mustahkamlik va estetikani taʼminlash
		E2.3	Zargarlik buyumlarini taʼmirlash va qayta tiklash	E2.01.3	Zargarlik buyumlarining shikastlangan qismlarini tiklash (kavsharlash, metall qismlarni almashtirish, toshlarni qayta oʻrnatish)
				E2.02.3	Tarixiy yoki eski zargarlik buyumlarining asl koʻrinishini tiklash, antik texnika va materiallardan foydalanish

5	73131014 — Zargar-zanjir yasovchi	F1.3	Zargarlik buyumlari yasash (zanjir yoʻnalishi)	F1.01.3	Qimmatbaho qimmatbaho metall ardan turli xil zanjirlar va ularning qismlarini tayyorlash, bezash, payvandlash va sayqallash orqali estetik va sifat talablariga javob beradigan zargarlik mahsulotini yaratish
				F1.02.3	Zanjir boʻgʻinlarini (halqa, segment, plastinka va h.k.) aniq oʻlchamda tayyorlash va qoʻshish, boʻgʻinlarni payvandlash, tuzilishini tekshirish va zanjir shaklida yigʻish
		F2.3	Zargarlik mahsulotlarini ishlab chiqarish (zanjir yasash ixtisosligi)	F2.01.3	Zargarlik zanjirlari va ularning qismlarini ishlab chiqish jarayonlarini rejalashtirish, nazorat qilish hamda sifat talablariga mos ravishda ishlab chiqarish texnologiyasini joriy etish orqali samarali va estetik mahsulot yaratish
				F2.02.3	Metall va qotishmalarning tarkibi, xossalari hamda ishlov berish usullarini aniqlash, zanjir turlariga mos texnologik kartalar va ishlab chiqarish yoʻriqnomalarini tayyorlash.

IV. Kasblar xaritasi va mehnat vazifalari tavsifi

Kasbning nomi	Zargar (zargar-modelyer)
Mashg'ulot nomining kodi	73131
TMR bo'yicha malaka darajasi	3
Amaliy tajriba (ish staji) ga qo'yilgan talablar	Kasbga kirish uchun kamida 1-2 yillik amaliy tajriba talab qilinadi (dizayn ishlab chiqish, 3D modellashtirish va prototip yasash bo'yicha). Murakkab individual buyurtmalar va 3D modellashtirishda yuqori malaka uchun 3-5 yillik tajriba afzal ko'riladi.
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	Mehnat qilish huquqi, yoshi, jinsi va sog'ligi: O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq mehnat qilish huquqiga ega bo'lish; 18 yoshdan oshiq; jinsi bo'yicha cheklov yo'q; yuqori daqiqlikda ishlash uchun yaxshi ko'rish qobiliyati va qo'l motor ko'nikmalari talab qilinadi. Shaxsiy kompetensiyalar: O'zini o'zi boshqarish: Vaqtni samarali boshqarish, murakkab dizayn loyihalarida diqqatni jamlash qobiliyati. Hayotga va ishga moslashish: Yangi dizayn dasturlari (CAD, Rhino, ZBrush) va texnologiyalarga tez moslashish. Muammolarni hal qilish: Dizayn va prototip yasashda texnik va estetik muammolarni (masalan, material cheklovlari) yechish qobiliyati. Ijodiylik: Mijoz talablariga mos original va estetik dizayn konsepsiyalarini yaratish. Mas'uliyat va daqiqlik: Qimmatbaho materiallar va mijoz buyurtmalari bilan ishlashda xatolarning oldini olish.
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Milliy malaka ramkasiga muvofiq: O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi (3-daraja), zargarlik dizayni, 3D modellashtirish yoki san'at sohasiga oid maxsus kurslar.
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi	- Ustoz-shogird an'anasi orqali malaka oshirish (zargarlik ustaxonalarida amaliy tajriba to'plash). - Norasmiy ta'lim: Onlayn-kurslar (masalan, CAD, Rhino, ZBrush bo'yicha), seminarlar va master-klasslar orqali dizayn ko'nikmalarini o'rganish. - Informal ta'lim: Zargarlik dizayni va prototip yasash bo'yicha o'z-o'zini o'rgatish, tajriba orqali ko'nikmalarni rivojlantirish. - Milliy malaka ramkasiga muvofiq norasmiy va informal ta'lim natijalari mustaqil baholash orqali tasdiqlanishi mumkin.

Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi		Mavjud emas	
Kasbning boshqa mumkin boʻlgan nomlari:		1-6 razryadli Zargar (zargar-modelyer)	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi		TMR boʻyicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
		3	21633001 — Zargarlik buyumlari dizayneri
		3	73131002 — Zargar (umumiy yoʻnalish)
Mehnat funksiyalarining tavsifi			
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari		
A1.3- Zargarlik buyumlarining dizaynini ishlab chiqish	A1.01.3- Zargarlik buyumlarining eskizlarini chizish, 3D modellashtirish dasturlari (Matrix va MatrixGold, CAD, Rhino, yoki ZBrush) orqali dizayn ishlab chiqish	Oʻqitish natijalari	
		Mehnat harakatlari:	
		1. Zargarlik buyumining eskizini qoʻlda chizish, uning estetik va funksional jihatlarini aks ettiruvchi konsepsiya ishlab chiqish.	
		2. CAD, Rhino, Matrix va MatrixGold yoki ZBrush kabi 3D modellashtirish dasturlarida buyumning aniq uch oʻlchamli modelini yaratish.	
		3. Dizaynda materiallar (oltin, kumush, toshlar) va oʻlchamlarning texnik imkoniyatlarini hisobga olish.	
		4. Eskiz va 3D modelni mijoz yoki ishlab chiqaruvchi bilan muhokama qilish, kerakli tuzatishlar kiritish.	
		5. Dizaynning vizual taqdimoti uchun yuqori sifatli rendering (vizualizatsiya) tayyorlash va mijozga taqdim qilish.	
		Koʻnikmalar:	
		Matrix va MatrixGold, CAD, Rhino, ZBrush kabi 3D modellashtirish dasturlari bilan professional ishlash koʻnikmasi.	
		Zargarlik buyumlarining estetik va texnik jihatlarini muvofiqlashtirish malakasi.	
		Rendering va vizualizatsiya dasturlari (masalan, KeyShot) bilan ishlash koʻnikmasi.	
		Mijoz bilan muloqot qilish va ularning talablarini eskizga oʻtkazish koʻnikmasi.	
		Dizayn jarayonida xatolarni aniqlash va tuzatish uchun analitik koʻnikmalar.	
		Zargarlik buyumlarining murakkab konstruksiyalarini modellashtirishda daqiqlik va ijodiy yondashuv.	
		Matrix, MatrixGold, CAD, Rhino, ZBrush kabi 3D modellashtirish dasturlari bilan professional ishlash koʻnikmasi.	
Bilimlar:			
Zargarlik buyumlari dizayni boʻyicha estetik va texnik prinsiplari			

		3D modellash dasturlari (CAD, Rhino, ZBrush) va ularning zargarlik dizaynida qo'llanishi bo'yicha bilim.
		Qimmatbaho metallar (oltin, kumush, platina) va toshlarning fizik-kimyoviy xususiyatlarini aniqlash bilimi.
		Zargarlik buyumlarining ishlab chiqarish jarayonlari va texnik cheklovlari bo'yicha bilim.
		Dizayn vizualizatsiyasi va rendering usullari bo'yicha bilimlar.
		Xalqaro zargarlik bozori tendensiyalari va moda standartlar.
		Mijoz bilan muloqot va dizayn talablarini tahlil qilish bo'yicha bilim.
A1.02.3- Mijozning individual talablariga muvofiq dizaynni takomillashtirish, material va byudjet chegaralarini hisobga olish		Mehnat harakatlari:
		1. Mijoz bilan suhbat olib borib, uning individual talablari, afzalliklari va byudjet imkoniyatlarini aniqlash.
		2. Dizaynni mijozning talablariga moslashtirish uchun eskiz va 3D modellarga tuzatishlar kiritish.
		3. Materiallar (metall, toshlar) va ishlab chiqarish texnologiyalarining narxini tahlil qilish va byudjetga mos tanlov qilish.
		4. Mijozga dizayn variantlarini taqdim qilish, ularning afzalliklari va cheklovlarini tushuntirish.
		5. Dizaynning oxirgi tasdig'ini olish uchun mijoz bilan muvofiqlashtirish va kerakli o'zgartirishlarni amalga oshirish.
		Ko'nikmalar:
		Mijoz bilan professional muloqot qilish va ularning ehtiyojlarini aniq tahlil qilish ko'nikmasi.
		Dizaynni mijoz talablariga moslashtirish uchun 3D modellash dasturlarida tezkor tuzatishlar kiritish malakasi.
		Materiallar narxi va ishlab chiqarish xarajatlarini hisoblash va byudjetga moslashtirish ko'nikmasi.
		Dizayn variantlarini mijozga vizual va tushunarli taqdim qilish ko'nikmasi.
		Mijoz bilan muzokara olib borish va qaror qabul qilishni osonlashtirish malakasi.
		Dizaynda estetik va texnik jihatlarni muvofiqlashtirishda analitik va ijodiy ko'nikmalar.
		Vaqt boshqarish va mijoz bilan belgilangan muddatlarga rioya qilish ko'nikmasi.
		Bilimlar:
		Mijoz bilan muloqot va ularning talablarini tahlil qilish bo'yicha psixologiya va savdo bilim

		Zargarlik buyumlarida qo'llaniladigan materiallar (metall, toshlar) va ularning narxlari bo'yicha bilim
		Ishlab chiqarish jarayonlari va ularning xarajatlari bo'yicha bilim
		3D modelashtirish dasturlarida dizaynni tuzatish va optimizatsiya qilish usullari bo'yicha bilim
		Zargarlik buyumlarining estetik va funksional talablari bo'yicha bilim
		Byudjet rejalashtirish va xarajatlarni optimizatsiya qilish bo'yicha bilim
		Xalqaro zargarlik dizayni standartlari va mijozlarning madaniy afzalliklari bo'yicha bilim
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Zargarlik buyumining dizayni mijozning individual talablari va estetik standartlarga to'liq javob berishiga javobgar.
		2. Dizayn jarayonida texnik xatolar va byudjetdan chiqib ketishning oldini olishga mas'ul bo'lish.
		3. Dizayn konsepsiyasi, modelashtirish usullari va materiallarni mustaqil tanlash va optimizatsiya qilish.
		5. Eskiz, 3D model va oxirgi dizaynning sifati va mijoz qoniqishiga kafolat berish.
		6. Mijoz bilan muloqotda mustaqil ravishda tavsiyalar berish va dizaynni takomillashtirish.
A2.3- Prototiplar yasash va dizaynni amalga oshirish	A2.01.3- Zargarlik buyumlarining prototiplarini tayyorlash (mum modellari, 3D-printer yordamida plastik modellar)	Mehnat harakatlari:
		1. Zargarlik buyumining 3D modeli asosida mum modellarini qo'lda shakllantirish yoki kesish uskunalarini bilan tayyorlash.
		2. 3D-printer orqali plastik yoki polimer modellarni yaratish uchun modelni maxsus formatga (STL, OBJ) o'tkazish.
		3. Prototipning aniqligi va sifatini tekshirish, kerakli tuzatishlarni qo'lda yoki 3D-printer yordamida amalga oshirish.
		4. Prototipni ishlab chiqarish jarayoniga tayyorlash uchun toshlar va metall qismlarning mosligini sinab ko'rish.
		5. Tayyor prototipni mijoz yoki ishlab chiqaruvchiga taqdim qilish va ularning fikr-mulohazalarini qabul qilish.
		Ko'nikmalar:
		Mum modellarini qo'lda shakllantirish va murakkab konstruksiyalarni yaratishda yuqori daqiqlik malakasi.
		3D-printerlar bilan ishlash va modellarni maxsus formatlarga tayyorlash ko'nikmasi.
		Prototiplarning sifatini vizual va asbobli (mikroskop, o'lchov asboblari) tekshirish ko'nikmasi.
		Toshlar va metall qismlarni prototipga moslashtirish va sinab ko'rish malakasi.

		Prototipni taqdim qilish va mijoz fikr-mulohazalarini tahlil qilish ko'nikmasi. Prototip yasash jarayonida xatolarni aniqlash va tuzatish uchun texnik ko'nikmalar. 3D-printerlar va mum kesish uskunalarini xavfsiz boshqarish va texnik xizmat ko'rsatish ko'nikmasi. Bilimlar: Mum modellarini yasash va shakllantirish texnikasi bo'yicha bilim 3D-printerlarning ish prinsipi va modellarni tayyorlash (STL, OBJ formatlari) bo'yicha bilim Zargarlik buyumlarining prototiplari uchun materiallar (mum, polimer) xususiyatlari bo'yicha bilim Prototiplarning sifatini tekshirish usullari va asboblari bo'yicha bilim Zargarlik buyumlarining ishlab chiqarish jarayonlari va texnik talablari bo'yicha bilim Toshlar va metall qismlarning prototipga mosligini baholash bo'yicha bilim Mijoz bilan muloqot va prototiplarni taqdim qilish bo'yicha bilimga ega bo'lish.
	A2.02.3- Dizaynda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va qayta ishlash, dizaynning estetik, ergonomik va texnologiya jihatidan talablarga mosligini ta'minlash	Mehnat harakatlari: 1. Tayyorlangan dizayn va prototiplarni tahlil qilib, funksional, estetik, ergonomik yoki texnologik kamchiliklarni aniqlash. 2. Aniqlangan nuqsonlarning sabablarini o'rganish, ularni hujjatlashtirish va bartaraf etish bo'yicha texnik takliflar tayyorlash. 3. Estetik talablar asosida shakl, rang, kompozitsiya va detallarni qayta ishlash. 4. Dizayn hujjatlari (3D-modellar, chizmalar, spesifikasiyalar)ga zarur o'zgartirishlar kiritish. 5. Kiritilgan tuzatishlar yakuniy talablar va standartlarga mosligini tekshirish. 6. Yakuniy dizayn variantini rasmiylashtirish va taqdimot qilish. Ko'nikmalar: Kamchiliklarning kelib chiqish sabablarini aniqlash va muammolarni bartaraf etish bo'yicha yechimlar taklif qilish. Dizayn jarayonini optimallashtirish va samaradorlikni oshirish. Estetik dizayn tamoyillarini amalda qo'llash: kompozitsiya, rang uyg'unligi, shakl balanslash. Prototiplarni qayta ishlab chiqish, sinovdan o'tkazish va natijalarni tahlil qilish. Mijozning talablarini to'g'ri qabul qilish va ularga mos takliflar ishlab chiqish.

		Bilimlar:
		Dizayn nazariyasi: kompozitsiya, rangshunoslik, estetika asoslari
		Estetik sifat mezonlari ba dizayn yondashuvlari Matrix va MatrixGold va boshqa texnik dasturiy ta’minotning ish prinsipi bo’yicha bilim
		Kamchiliklarni aniqlash metodlari (kauzal tahlil, ish jarayonini kuzatish, foydalanuvchi tahlili).
		Muammolarni aniqlash ba ularni yechish bo’yicha analitik yondashuvni amalga oshirish.
	Mas’uliyat va mustaqillik:	1. Dizaynda aniqlangan kamchiliklarni o’z vaqtida bartaraf etish va jarayon sifati uchun shaxsiy javobgarlik.
		2. Kiritilgan o’zgarishlarning hujjatlashtirilishi, chizmalar va modellarni yangilash bo’yicha to’g’ri ish yuritish.
		3. Zarur materiallar, texnologiyalar va konstruktiv yechimlarni mustaqil tanlash.
		4. Qayta ishlash jarayonining vaqtini boshqarish va ustuvor vazifalarni belgilash.
		5. Yakuniy natija uchun shaxsiy javobgarlikni his qilib, yuqori sifatni ta’minlash.
Texnik va/yoki texnologik talab		
Yuqori sifatli kompyuter va 3D modellashtirish dasturlari (Matrix va MatrixGold, CAD, Rhino, ZBrush, AutoCAD, SolidWorks); 3D-printerlar (SLA, FDM), mum kesish va shakllantirish uskunalari; vizualizatsiya dasturlari (KeyShot, Cura); presizion o’lchov asboblari (mikrometr, shtangensirkul); chizish planshetlari va grafik displeylar; materiallar va texnologiyalarni tahlil qilish uchun ma’lumot bazalari; xavfsiz va yorug’likka mos ish muhiti.		

Kasbning nomi	Zargarlik buyumlar bo'yicha usta	
Mashg'ulot nomining kodi	73131	
TMR bo'yicha malaka darajasi	3	
Amaliy tajriba (ish staji) ga qo'yilgan talablar	- Kasb bo'yicha kamida 2-3 yillik amaliy tajriba talab qilinadi. - Murakkab zargarlik buyumlarini mustaqil ravishda ishlab chiqarish va ta'mirlash tajribasi. - Ustalar guruhini boshqarish yoki shogirdlarga ta'lim berish tajribasi (agar mavjud bo'lsa).	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	- Mehnat qilish huquqi, yoshi, jinsi va sog'ligi: - O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq mehnat qobiliyatiga ega bo'lish. - Yoshi: 18 yoshdan yuqori (cheklovsiz). - Jinsi: Cheklov yo'q. - Sog'ligi: Yuqori darajadagi ko'z ko'rishi, qo'l motor ko'nikmalari va diqqat-e'tibor talab qilinadi. - Shaxsiy kompetensiyalar: - Murakkab vazifalarni mustaqil bajarish va qaror qabul qilish qobiliyati. - Dizayn va estetik didga ega bo'lish, zargarlik trendlarini bilish. - Muammolarni tezkor hal qilish va ish jarayonida moslashuvchanlik. - Guruhda ishlash va boshqa ustalar bilan hamkorlik qilish ko'nikmasi. - Xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilish va ish joyida tartib-intizomni saqlash. - O'z ishiga yuqori mas'uliyat bilan yondashish va sifatga e'tibor berish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	- Kasb-hunar ta'limi (kollej) yoki maxsus o'rta ta'lim (zargarlik yo'nalishi bo'yicha).	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi	- Ustoz-shogird an'analari orqali norasmiy ta'lim olish imkoniyati mavjud. - Zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish va ta'mirlash bo'yicha maxsus kurslarda informal ta'lim. - TMRga muvofiq malaka darajasini tasdiqlash uchun mustaqil baholashdan o'tish. - Xalqaro yoki milliy zargarlik korxonalarida stajirovka o'tash imkoniyati.	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi	Mavjud emas	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	3-6 razryadli Zargarlik buyumlar bo'yicha usta	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	3	73131002 — Zargar (umumiy yo'nalish)

		3	73131004 — Zargar-bilakuzukchi
Mehnat funksiyalarining tavsifi			
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari		
B1.3- Zargarlik buyumlari ishlab chiqarish va ta'mirlash	B1.01.3- Murakkab zargarlik buyumlarini (masalan, ko'p qatlamli taqinchoqlar, inkrustatsiyali uzuklar) loyihalashtirish va ishlab chiqarish	O'qitish natijalari	
		Mehnat harakatlari:	
		1. Mijoz talablari va texnik vazifalar asosida murakkab zargarlik buyumlarining eskizlarini ishlab chiqish.	
		2. Zargarlik buyumlarining 3D-modellarini maxsus dasturlar (masalan, CAD) yordamida loyihalashtirish.	
		3. Yuqori sifatli metall va qimmatbaho toshlarni tanlash, ularning xususiyatlarini tahlil qilish.	
		4. Inkrustatsiya va ko'p qatlamli konstruksiyalarni yasash uchun aniq va murakkab texnik operatsiyalarni bajarish.	
		5. Tayyor buyumning dizayni va funksionalligini mijoz bilan kelishish, kerakli tuzatishlar kiritish.	
		Ko'nikmalar:	
		Zargarlik buyumlarining eskizlarini qo'lda va raqamli formatda yasash ko'nikmasi.	
		3D-modellashtirish dasturlari (masalan, Rhino, Matrix) bilan ishlash qobiliyati.	
		Metall va qimmatbaho toshlarning fizik va kimyoviy xususiyatlarini tushunish va ularni ishlov berish usullari.	
		Inkrustatsiya va murakkab konstruksiyalarni yasashda yuqori darajadagi qo'l motor ko'nikmalari.	
		Mijoz bilan muloqot qilish va ularning talablarini to'g'ri talqin qilish ko'nikmasi.	
		Loyiha vaqtini boshqarish, murakkab buyumlarni belgilangan muddatlarda bajarish qobiliyati.	
		Bilimlar:	
		Zargarlik san'ati va dizaynining tarixi va zamonaviy yo'nalishlari	
		Metallurgiya va materialshunoslik asoslari, xususan, qimmatbaho metall va toshlar bilan ishlash	
		3D-modellashtirish va CAD/CAM texnologiyalari bo'yicha texnik bilimlar	
		Zargarlik buyumlarining ergonomikasi va funksional dizayni bo'yicha bilimlar	
		Xavfsizlik qoidalari va zararli moddalar bilan ishlash standartlari	
		Mijoz bilan muloqot va loyiha boshqaruvi bo'yicha bilimlar	
		Mehnat harakatlari:	

	B1.02.3- Yuqori darajadagi individual buyurtmalarni bajarish, mijoz bilan yaqin hamkorlikda ishlash	1. Mijoz bilan suhbat o'tkazish, ularning xohish va talablarini aniqlashtirish. 2. Individual buyurtmaga muvofiq buyumning konseptual dizaynini ishlab chiqish. 3. Mijozga buyumning eskizlari, 3D-modellari yoki prototiplarini taqdim etish. 4. Mijoz bilan kelishilgan dizayn asosida buyumni yasash jarayonini amalga oshirish. 5. Tayyor buyumni mijozga taqdim qilish, kerakli tuzatishlarni amalga oshirish. Ko'nikmalar: Mijoz bilan professional muloqot qilish va ularning ehtiyojlarini tushunish ko'nikmasi. Individual buyurtmalar uchun eskizlar va vizuallashtirish materiallarini yasash qobiliyati. Mijozning fikr-mulohazalarini tezkor tarzda qayta ishlash va dizaynga tuzatishlar kiritish. Yuqori sifatli materiallar bilan ishlash va individual talablarga moslashtirish. Vaqtni samarali boshqarish, buyurtmani qisqa muddatlarda bajarish ko'nikmasi. Estetik va funksional dizaynni mijoz xohishlariga moslashtirish qobiliyati. Prezentatsiya va muzokara ko'nikmalari, buyumning afzalliklarini mijozga tushuntirish. Bilimlar: Mijozlar bilan ishlash psixologiyasi va muloqot etikasi Zargarlik buyumlarining individual dizayni bo'yicha zamonaviy texnologiyalari Qimmatbaho materiallarning xususiyatlari va ularni ishlov berish usullari Dizayn va vizuallashtirish uchun maxsus dasturlari Zargarlik buyumlarining sifati Loyiha boshqaruvi va buyurtmalarni rejalashtirish bo'yicha bilimlari Xavfsizlik va gigiyena standartlari, xususan, zararli moddalar bilan ishlash bilimlar
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Mijozning individual buyurtmasini to'liq va sifatli bajarish uchun to'la mas'uliyat. 2. Loyihani mustaqil ravishda boshqarish, dizayndan tortib tayyor buyumgacha bo'lgan jarayonni nazorat qilish. 3. Mijoz bilan muloqotda professionallik va ishonchlilikni ta'minlash.
		Mehnat harakatlari: 1. Ishlab chiqarish jarayonini rejalashtirish, vazifalarni ustalar guruhiga taqsimlash.

B2.3 Zargarlik buyumlari ishlab chiqarish	B2.01.3 Zargarlik buyumlarining ishlab chiqarish jarayonini boshqarish, ustalar guruhini muvofiqlashtirish	2. Ustalarning ish jarayonini kuzatish, texnologik talablarga rioya qilinishini nazorat qilish.
		3. Ishlab chiqarishda foydalaniladigan asbob-uskunalar va materiallarning tayyorligini tekshirish.
		4. Ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal qilish, tezkor choralar ko'rish.
		5. Ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini oshirish uchun takliflar kiritish.
		Ko'nikmalar:
		Guruhni boshqarish va vazifalarni muvofiqlashtirish ko'nikmasi.
		Ishlab chiqarish jarayonlarini rejalashtirish va optimizatsiya qilish qobiliyati.
		Texnologik jarayonlarni nazorat qilish va xatolarni aniqlash ko'nikmasi.
		Asbob-uskunalar bilan ishlash va ularning ishonchliligini ta'minlash.
		Muammolarni tezkor hal qilish va qaror qabul qilish qobiliyati.
		Xavfsizlik qoidalariga rioya qilish va ularni guruh a'zolariga o'rgatish.
		Ishlab chiqarishda sifat standartlariga rioya qilish ko'nikmasi.
		Bilimlar:
		Zargarlik buyumlarini ishlab chiqarishning texnologik jarayonlari
		Guruh boshqaruvi va samarali muloqot bo'yicha bilimlari
		Asbob-uskunalar va materiallarning texnik xususiyatlari
		Ishlab chiqarishda sifat nazorati standartlari (ISO va boshqalar).
		Xavfsizlik va mehnatni muhofaza qilish qoidalar
		Ishlab chiqarish jarayonini optimizatsiya qilish usullari
		Zargarlik buyumlarining sifatiga ta'sir qiluvchi omillari
		Mehnat harakatlari:
		1. Tayyor zargarlik buyumlarining mustahkamligi va sifatini maxsus asboblarda yordamida tekshirish.
		2. Buyumning estetik ko'rinishini baholash, dizayn va inkrustatsiya sifatini tekshirish.
		3. Buyumning milliy va xalqaro sifat standartlariga muvofiqligini tahlil qilish.
		4. Buyumdagi nuqsonlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar berish.
		5. Sifat tekshiruv natijalarini hujjatlashtirish va mijozga taqdim etish.

	B2.02.3- Tayyor zargarlik buyumlarining sifatini kompleks tekshirish (mustahkamlik, estetika, standartlarga muvofiqlik)		Ko'nikmalar:
			Sifat nazorati asboblari bilan ishlash ko'nikmasi.
			Zargarlik buyumlarining estetik va funksional sifatini baholash qobiliyati.
			Nuqsonlarni aniqlash va ularning sabablarini tahlil qilish ko'nikmasi.
			Sifat standartlariga muvofiqlikni tekshirish va sertifikatlash jarayoni.
			Hujjatlashtirish va sifat tekshiruvi natijalarini rasmiylashtirish.
			Mijoz bilan sifat masalalari bo'yicha muloqot qilish qobiliyati.
			Tezkor va aniq qaror qabul qilish, nuqsonlarni bartaraf etish.
			Bilimlar:
			Zargarlik buyumlarining sifat standartlari
			Sifat nazorati asboblari va ularning ishlatilish usullari
			Metall va qimmatbaho toshlarning fizik va kimyoviy xususiyatlari.
			Zargarlik buyumlarida nuqsonlarning kelib chiqish sabablari.
			Sifat boshqaruvi tizimlari bo'yicha bilimlar.
	Hujjatlashtirish va sifat tekshiruvini rasmiylashtirish qoidalari.		
	Estetika va dizayn sifatini baholash bo'yicha bilimlar.		
	Mas'uliyat va mustaqillik:		1. Tayyor zargarlik buyumlarining sifati uchun to'liq mas'uliyat.
			2. Sifat tekshiruvi jarayonini mustaqil ravishda amalga oshirish va qarorlar qabul qilish.
			3. Nuqsonlarni bartaraf etish va sifatni oshirish bo'yicha takliflar kiritish.
Texnik va/yoki texnologik talab			
Asbob-uskunalar: Zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish va sifat tekshiruvi uchun yuqori aniqlikdagi asboblari (lazerli kesish uskunalar, mikroskoplar, 3D-printerlar, asillik darajasini aniqlash uskunalar va boshqalar).			
Dasturlar: 3D-modellashtirish va dizayn uchun maxsus dasturlar (CAD, Rhino, Matrix, Adobe Illustrator).			
Materiallar: Qimmatbaho metall (oltin, kumush, platina) va toshlar (brilliant, zumrad, sapfir), ularning sertifikatlari.			

Kasbning nomi	Zargar-bilakuzukchi	
Mashg'ulot nomining kodi	73131	
TMR bo'yicha malaka darajasi	3	
Amaliy tajriba (ish staji) ga qo'yilgan talablar	Kasb bo'yicha kamida 1-2 yillik amaliy tajriba talab qilinadi. Ishlab chiqarishda yoki ta'mirlashda mustaqil ishlash ko'nikmasi.	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	Mehnat qilish huquqi, yoshi, jinsi va sog'ligi: O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq mehnat qobiliyatiga ega bo'lish; 18 yoshdan oshgan; jinsi bo'yicha cheklov yo'q; ko'z ko'rishi va qo'l motor ko'nikmalari yuqori darajada bo'lishi talab qilinadi. – Shaxsiy kompetensiyalar: Zargarlik buyumlari bilan ishlashda diqqat-e'tibor va aniqlik. — Estetik did va dizayn ko'nikmalari. — Muammolarni hal qilish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati. — Ustoz-shogird an'analari asosida o'rganishga tayyorlik. — Xavfsizlik qoidalariga rioya qilish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Kasb-hunar ta'limi (kollej) yoki maxsus o'rta ta'lim (zargarlik yo'nalishi bo'yicha).	
Norasmiiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi	- Ustoz-shogird an'analari orqali norasmiiy ta'lim olish mumkin. — Zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish va ta'mirlash bo'yicha maxsus kurslarda informal ta'lim.	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi	Mavjud emas	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	3-6 razryadli Zargar-bilakuzukchi	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	3	73131002 — Zargar (umumiy yo'nalish)
	3	73131006 — Zargarlik buyumlar bo'yicha usta
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
D1.3-Bilakuzuk yasash	O'qitish natijalari	
	Mehnat harakatlari:	
	1. Qimmatbaho metallarni (oltin, kumush, platina) eritish uchun maxsus eritish pechlarini tayyorlash va temperaturani aniq nazorat qilish.	
	2. Eritilgan metallni quyish qoliplariga aniq va xavfsiz quyish, qolipning sifatini tekshirish.	
	3. Metallni qo'l usullari yoki mexanik uskunalar (prokatlash stanoklari) yordamida shakllantirish.	

	D1.01.3- Bilguzuklar (bilak uzuklar) va boshqa zargarlik buyumlarini qimmatbaho metallardan tayyorlash, bezash, sifatli va estetik jihatdan yuksak mahsulot yaratish	4. Tayyorlangan metall qismlarning o'lchamlari va sifatini mikrometr va boshqa o'lchov asboblari bilan tekshirish.
		5. Shakllantirilgan metallni ishlab chiqarishning keyingi bosqichlariga tayyorlash.
		Ko'nikmalar:
		Eritish pechlari bilan ishlashda yuqori daqiqlik va xavfsizlik standartlariga rioya qilish ko'nikmasi.
		Metallni quyish jarayonida qoliplarni aniq boshqarish va xatolarning oldini olish malakasi.
		Qo'lda zarb qilish, chizish va prokatlash kabi shakllantirish usullarida professional ko'nikma.
		Metall qismlarning sifatini tekshirish ko'nikmasi.
		Metallning fizik xususiyatlariga muvofiq shakllantirish texnikasini tanlash ko'nikmasi.
		Eritilgan metall bilan ishlashda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi ko'nikmasi.
		Tayyor metall qismlarni sayqallash va o'rnatishga tayyorlashda daqiqlik va e'tibor.
		Bilimlar:
		Qimmatbaho metallarning (oltin, kumush, platina) fizik-kimyoviy xususiyatlari va eritish jarayonlari bo'yicha bilimlar
		Eritish pechlari va quyish qoliplarining ish prinsipi va texnik talablari bo'yicha bilimlar
		Metallni shakllantirish usullari (qo'lda va mexanik) va ularning zargarlik ishlab chiqarishida qo'llanishi bo'yicha bilimlar
		O'lchov asboblari (mikrometr, shtangensirkul) va ularning sifat nazoratida ishlatilishi bo'yicha bilimlarga ega bo'lish.
		Zargarlik buyumlarining ishlab chiqarish bosqichlari va texnik talablari bo'yicha bilimlarga ega bo.
		Xavfsizlik standartlari va eritilgan metall bilan ishlashda mehnat muhofazasi bo'yicha bilim.
		Metall qismlarni sayqallash va o'rnatishga tayyorlash jarayonlari bo'yicha bilim.
	D1.02.3-Qolip tayyorlash, kesish, eritish va quyish jarayonlarini bajarish, bilak uzuk shaklini berish, pardozlash va sayqallash	Mehnat harakatlari:
		1. Buyum uchun zarur o'lchamlar, shakl va dizayn talablari asosida qolip tayyorlash.
		2. Asosiy materiallarni (oltin, kumush, mis, qotishmalar) kesish, parchalash va dastlabki shaklga keltirish.
		3. Metallni eritish jarayonlarini texnik talablar asosida amalga oshirish.
		4. Qattqlik, shakl va o'lchamni tekshirib, bilak uzuk shaklini berish uchun egish, cho'zish va tekislash amallarini bajarish.

	ishlarini olib borish	5. Bezash uchun naqsh berish, o'yish yoki lazer orqali ishlov berish jarayonlarini amalga oshirish. Ko'nikmalar: Qolip yasash va uni texnik talablar bo'yicha tayyorlash ko'nikmasi. Metallni kesish, egish, eritish va quyish jarayonlarida aniq ishlay olish ko'nikmasi. Bilak uzuk shaklini berish uchun zarb qilish, egish va shakllantirish usullarini qo'llash ko'nikmasi. Naqsh chizish yoki mayda bezak elementlari bilan ishlash bo'yicha ko'nikmalar. Asboblari: pilla, bur, gravirovka asbobi, shlifovka apparati, mikrometr, shtangel kabi vositalardan to'g'ri foydalanish ko'nikmasi. Har xil metall qotishmalar bilan ishlaganda ularning haroratga sezgirligini hisobga olish ko'nikmasi. Buyumning yuzasini sifatli pardoqlash ko'nikmasi. Bilimlar: Tosh o'rnatish usullari (pave, bezel, prong, gluxaya, krapanovaya, zakrepka pave, kornerovaya, relsovaya, kleevaya) va ularning zargarlik dizaynida qo'llanishi bo'yicha bilim. Buyumning texnik chizmasini o'qish va yaratish bo'yicha bilim. Oltin, kumush, mis va boshqa qotishmalarining fizik-mexanik bo'yicha bilim. Zargarlik buyumlarining dizayni va texnik talablari bo'yicha bilim. Qolip tayyorlash usullari: gips, qum, silikon yoki metall qoliplar bo'yicha bilim. Eritish texnologiyalari: pech turi, haroratni boshqarish, qizdirish tezligi bo'yicha bilim. Xavfsizlik standartlari va tosh o'rnatishda mehnat muhofazasi bo'yicha bilim. Zargarlik buyumlarining sifat nazorati bo'yicha bilim.
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Qolip tayyorlashdan tortib sayqallashgacha bo'lgan barcha jarayonlarning sifat va xavfsizligini ta'minlash javobgar bo'lish. 2. Qimmatbaho materiallarning zarar ko'rmasligi va isrof bo'lishining oldini olishga mas'ul bo'lish. 3. Eritish, quyish, shakllantirish va tosh o'rnatish usullarini mustaqil tanlash va jarayonni optimizatsiya qilish. 4. Tayyor buyumning mustahkamligi, estetikasi va texnik talablarga mosligiga kafolat berish. 5. Ishlab chiqarish xatolarini mustaqil aniqlash va tuzatishga mas'ul bo'lish.
		Mehnat harakatlari:

D2.3- Zargarlik mahsulotlarini ishlab chiqarish (bilak uzuklar)	D2.01.3- Qimmatbaho metallardan yasalgan bilak uzuklar hamda boshqa zargarlik buyumlarini bezash, naqsh tushirish, tosh o'rnatish va mahsulotning estetik ko'rinishini takomillashtirish orqali yuqori sifatli tayyor mahsulot yaratish	1. Zargarlik buyumining shikastlangan qismlarini (payvandlash, tosh o'rnatishlari) mikroskop va lupa yordamida tahlil qilish.
		2. Tayyorlangan zargarlik buyumining yuzasini bezashga tayyorlash: pardozlash, tekislash, tozalash, jilo berish.
		3. Qo'lda yoki mexanik usulda naqsh chizish (gravirovka) jarayonlarini bajarish.
		4. Tayyor mahsulotni texnik talablar, estetik me'yorlar va sifat standartlariga muvofiqligini tekshirish.
		Ko'nikmalar:
		Mikroskop va lupa yordamida shikastlangan buyumlarni aniq tahlil qilish ko'nikmasi.
		Buyum yuzasini sifatli pardozlash va tayyorlash malakasi.
		Metall qismlarni tayyorlash va almashtirish uchun kesish, shakllantirish va kavsharlash ko'nikmasi.
		Turli xil uslublarda tosh o'rnatish va mahkamlash ko'nikmalari.
		Ta'mirlangan buyumning estetik ko'rinishi va mustahkamligini tekshirish ko'nikmasi.
		Rang, shakl va kompozitsiya uyg'unligini to'g'ri baholash.
		Ish vaqtini rejalashtirish, ustuvor vazifalarni belgilash ko'nikmasi.
		Bilimlar:
		Zargarlik buyumlarining shikastlanish turlari va ularni ta'mirlash usullari
		Lazerli va qo'lda kavsharlash texnikasi va ularning zargarlikda qo'llanishi
		Turli toshlarni o'rnatish texnologiyasi va mahkamlash standartlari
		Oltin, kumush, platina, palladiy va boshqa qimmatbaho metallarning fizik xususiyatlari
		Zargarlik buyumlarining sifat nazorati va mustahkamlik talablari
		Sayqallash jarayonlari
		Xavfsizlik standartlari va ta'mir jarayonida mehnat muhofazasi
	D2.02.3- Qimmatbaho toshlar, shishalar	Mehnat harakatlari:
		1. Tayyorlanayotgan buyumning estetik, texnik va sifat mezonlariga to'liq mos bo'lishini ta'minlash.
		2. Toshlar, shisha elementlar yoki metall detallarni tanlash va saralash.
		3. Qimmatbaho toshlar yoki bezak elementlari uchun maxsus joylar, o'rinlar tayyorlash.

	yoki boshqa bezak elementlarini oʻrnatish va mahkamlash, buyumlarni sayqallash, pardalash va yaltiroq koʻrinish berish ishlarini amalga oshirish	4. Yaltiroq effekt uchun maxsus pastalar bilan sayqallash. 5. Tayyor ishlab chiqilgan buyumni yakuniy tozalash va jilolash. Koʻnikmalar: Nozik qoʻl mehnati boʻyicha aniqlik va eʼtibor bilan ishlash koʻnikmasi. Toshlarni oʻrnatish: prong, bezel, channel, pave kabi usullarni bilish koʻnikmasi (gluxaya, krapanovaya, zakrepka pave, kornerovaya, relsovaya, kleevaya). Mexanik va elektr sayqallash moslamalaridan foydalanish koʻnikmasi. Lak va pardo materiallarini toʻgʻri surtish koʻnikmasi. Zarar bermasdan kichik detallar bilan ishlash koʻnikmasi Metall va toshlarning xususiyatiga mos usullarni tanlash koʻnikmasi. Tokarlik, maydalash, silliqlash apparatlaridan xavfsiz foydalanish koʻnikmasi. Bilimlar: Qimmatbaho toshlarning xususiyatlari Metall qotishmalari Tosh oʻrnatish va bezak berish texnologiyalari Sayqallash va pardalash jarayonlarining bosqichlari Yelimlar va laklarning kimyoviy xususiyatlari Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish (koʻzoynak, qoʻlqop, respirator) Kimyoviy moddalarning xavfsizligi boʻyicha qoidalar
	Masʼuliyat va mustaqillik:	1. Ishlangan mahsulot sifatini taʼminlash. 2. Qimmatbaho materiallarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda boʻlish. 3. Belgilangan texnologik tartibga amal qilish. 4. Oddiy va oʻrta murakkablikdagi oʻrnatish, sayqallash ishlarini mustaqil bajarish. 5. Sifat nazoratini oʻzi olib borish va kamchiliklarni mustaqil tuzatish.
Texnik va/yoki texnologik talab		Qimmatbaho toshlar, shisha va boshqa bezak elementlarini oʻrnatish, mahkamlash hamda buyumlarni sayqallash va pardalash — bu buyumning tashqi koʻrinishi, jozibadorligi va mustahkamligini oshirishga qaratilgan nozik qoʻl mehnati jarayonlaridir. Ushbu ishlar materiallarni aniq joylashtirish, ularni ishonchli mahkamlash, sirtini tekislab yaltiroq holga keltirish va estetik sifatni taʼminlashni oʻz ichiga oladi.

Kasbning nomi		Zargar (umumiy yo'nalish)	
Mashg'ulot nomining kodi		73131	
TMR bo'yicha malaka darajasi		3	
Ish staji (amaliy tajriba)ga qo'yilgan talablar		- Kasb bo'yicha kamida 1-2 yillik amaliy tajriba talab qilinadi. - Ishlab chiqarishda yoki ta'mirlashda mustaqil ishlash ko'nikmasi.	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar		Mehnat qilish huquqi, yoshi, jinsi va sog'ligi: O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq mehnat qobiliyatiga ega bo'lish; 18 yoshdan oshgan; jinsi bo'yicha cheklov yo'q; ko'z ko'rishi va qo'l motor ko'nikmalari yuqori darajada bo'lishi talab qilinadi. – Shaxsiy kompetensiyalar: Zargarlik buyumlari bilan ishlashda diqqat-e'tibor va aniqlik. — Estetik ta'm va dizayn ko'nikmalari. — Muammolarni hal qilish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati. — Ustoz-shogird an'analari asosida o'rganishga tayyorlik. — Xavfsizlik qoidalariga rioya qilish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:		Kasb-hunar ta'limi (kollej) yoki maxsus o'rta ta'lim (zargarlik yo'nalishi bo'yicha).	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi		- Ustoz-shogird an'analari orqali norasmiy ta'lim olish mumkin. — Zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish va ta'mirlash bo'yicha maxsus kurslarda informal ta'lim.	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi		Mavjud emas	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:		1-6 razryadli Zargar (umumiy yo'nalish)	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi		TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
		3	73131006 — Zargarlik buyumlar bo'yicha usta
Mehnat funksiyalarining tavsifi			
Kodi va nomi		Mehnat vazifalari	
E1.3-Zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish va mahkamlash	E1.01.3-Qimmatbaho metallarni (oltin, kumush, platina) eritish, quyish va shakllantirish (qo'l usullari va	O'qitish natijalari	
		Mehnat harakatlari:	
		1. Qimmatbaho metall xomashyosini saralash, tozalash va zargarlik buyumlari tarkibini aniqlash.	
		2. Qotishmalar nisbatini aniqlash (masalan: 585, 750 oltin; kumush; platina qotishmalari).	
		3. Qolip ichida metallning to'ldirilishini kuzatish.	
		4. Qolipni sovitish va ehtiyotkorlik bilan ochish.	

	zamonaviy uskunalar)	Ko'nikmalar: Qimmatbaho metallarning fizik-kimyoviy xususiyatlarini amalda qo'llash bo'yicha ko'nikmasi. Modellastirish bo'yicha ko'nikmasi. Harorat nazorati va texnologik jarayonni kuzatish bo'yicha ko'nikmasi. Buyurtmalarni ketma-ketlikda rejalash va boshqarish bo'yicha ko'nikmasi. Uskunalarini texnik xizmat ko'rsatish qoidalarini bilish bo'yicha ko'nikmasi. Bilimlar: Oltin, kumush, platina va ularga qo'shiladigan qotishmalarining fizik-kimyoviy xususiyatlari Metall eritish texnologiyasi Quyish texnologiyalari Yuzaga ishlov berish texnologiyalari Yuqori harorat bilan ishlash qoidalarini Gaz ballonlari, eritish pechlari bilan xavfsiz ishlash Bozor talablari, yo'nalish va modalar
	E1.02.3- Toshlarni zargarlik buyumlariga maxsus usullar (qadoqlash, kanali o'rnatish, shina o'rnatish) orqali mahkamlash, mustahkamlik va estetikani ta'minlash (gluxaya, krapanovaya, zakrepka pave, kornerovaya, relsovaya, kleevaya).	Mehnat harakatlari: 1. O'rnatiladigan toshning turini, shaklini, kattaligini va fasetlarini aniqlash. 2. Tosh o'rnatish usuliga mos maxsus asboblarni tayyorlash. 3. Ishlov berilgan joyni tekislab silliqlash va polirovka qilish. 4. O'rnatilgan toshning mustahkamligini sinash. 5. Buyumni yakuniy sifat nazoratidan o'tkazish. Ko'nikmalar: Tosh turiga mos o'rnatish texnikalarini mukammal qo'llay olish bo'yicha ko'nikmasi. Metall devorlarni zararsiz bukish, cho'zish va silliqlash bo'yicha ko'nikmasi. Toshni shikastlamasdan joylashtirish bo'yicha ko'nikmasi. Qattiqligi yuqori bo'lgan qimmatbaho toshlar bilan ehtiyotkor ishlash (olmos, safir, rubin.....) bo'yicha ko'nikmasi. Buyumning dizayniga mos o'rnatish turini tanlash bo'yicha ko'nikmasi. To'g'ri yaltirash burchagini ta'minlash bo'yicha ko'nikmasi. Bilimlar: Qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlarning xususiyatlari Qadoqlash bo'yicha bilim Oltin, kumush, platina qotishmalarining xususiyatlari

		Metallning cho'zilish, bukilish, qattiqlashish darajasi
		Toshning markazlashuvi va simmetriya talablari
		Mustahkamlik standarti va sinov usullari
		Toshlarni noto'g'ri qattiq bosish natijasida yuzaga keladigan xavflar
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. O'rnatilayotgan toshlarning mustahkamligi, xavfsizligi va uzoq vaqt xizmat qilishini ta'minlash uchun to'liq mas'ul bo'ladi.
		2. Toshlarni o'rnatish jarayonida buyumga yetkazilishi mumkin bo'lgan shikastlanishlar, tirnashlar yoki nuqsonlarni oldini olish mas'uliyati ustaga yuklanadi.
		3. Har bir buyum bo'yicha dizayn talablariga, texnik chizmalariga rioya qilish mas'uliyati.
		4. Tosh o'rnatishning turli usullarini (gluxaya, krapanovaya, zakrepka pave, kornerovaya, relsovaya, kleevaya) qadoqlash, kanalli o'rnatish, shina/prong) mustaqil tanlash va buyum dizayniga mos ravishda qo'llash.
		5. Ish jarayonida paydo bo'lgan muammolarni (yuqori qattqlik, notekis faset, o'lcham farqi) mustaqil tahlil qilish va hal etish.
E2.3-Zargarlik buyumlarini ta'mirlash va qayta tiklash	E2.01.3-Zargarlik buyumlarining shikastlangan qismlarini tiklash (kavsharlash, metall qismlarni almashtirish, toshlarni qayta o'rnatish)	Mehnat harakatlari:
		1. Shikastlangan zargarlik buyumini vizual va lupa/mikroskop yordamida tekshirish.
		2. Tiklash usulini tanlash (kavsharlash, qismlarni to'ldirish, almashtirish, qayta o'rnatish).
		3. Kavsharlangan joyni sovitish, tozalash, silliqlash va polirovka qilish.
		4. Almashtirilgan qismning simmetriyasini tekshirish.
		5. Toshni qayta joylashtirish.
		Ko'nikmalar:
		Kavsharlash usullarini puxta bilish bo'yicha ko'nikmasi.
		Murakkab shaklli mayda detallarni tiklashda mikroskop ostida ishlay olish bo'yicha ko'nikmasi.
		Toshlarni qayta o'rnatish bo'yicha ko'nikmasi.
		Almashtirilgan qismning buyum bilan uyg'unligini ta'minlash bo'yicha ko'nikmasi.
		Buyumning asl shaklini estetikasini tiklash bo'yicha ko'nikmasi.
		Toshlarning yorqinligini maksimal darajada ochib berish texnikalari bo'yicha ko'nikmasi.
		Bilimlar:
		Oltin, kumush, platina va ularning qotishmalarining kimyoviy va mexanik xususiyatlari
		Har xil kavshar turlarining erish harorati va qo'llanish sohasi

		Lazerli payvandlash texnologiyalari
		Metall qismlarni qayta ishlab tayyorlash texnikalari
		Turli o'rnatish turlari bo'yicha toshlarni qayta mahkamlash texnologiyasi
		Toshni himoya qilish usullari
		Tiklangan joyning mustahkamligini baholash mezonlari
	E2.02.3- Tarixiy yoki eski zargarlik buyumlarining asl ko'rinishini tiklash, antik texnika va materiallardan foydalanish	Mehnat harakatlari:
		1. Buyumning yoshi, kelib chiqishi, uslubi va texnikasini aniqlash.
		2. Buyumning asl dizaynini aniqlash uchun eski fotosuratlar, kataloglar yoki arxiv materiallarini o'rganish.
		3. Eski buyumlarda ishlatilgan texnikalar asosida tiklash.
		4. Tarixiy davrga mos, o'sha tipdagi tosh yoki almashtirilmaydigan tabiiy toshni tanlash.
		5. Buyumning umumiy ko'rinishini estetik jihatdan tiklash va tabiiy eskirganlik darajasini saqlash.
		Ko'nikmalar:
		Eski davr zargarlik texnikalarini qo'llash bo'yicha ko'nikmasi.
		Eski emal texnikalari bo'yicha ko'nikmasi.
		Buyumga minimal zarar bilan ta'mirlash usulini tanlash bo'yicha ko'nikmasi.
		Buyumning davriga mos shakl, naqsh va uslubni aniq tiklay olish bo'yicha ko'nikmasi.
		Qiyin metall tarkiblarini aniqlash va mos texnika tanlash bo'yicha ko'nikmasi.
		Bilimlar:
		Turli davr zargarlik san'ati bo'yicha bilim
		Tarixiy qotishmalar bo'yicha bilim
		Qo'lda yaratilgan filigran va granulyatsiya texnikasi bo'yicha bilim
		Kimyoviy moddalar bilan ishlash qoidalari bo'yicha bilim
		Yuqori harorat va nozik konstruktsiyalarni himoyalash usullari bo'yicha bilim
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Tarixiy zargarlik buyumining asl ko'rinishi, uslubi va badiiy qiymatini saqlab qolish uchun to'liq mas'ul bo'ladi.
		2. Restavratsiya jarayonida buyumga zarar yetkazmaslik, uning tarixiy qimmatini pasaytirmaslik bo'yicha qat'iy javobgarlik.
		3. Tiklash ishlari davomida mavjud naqsh, o'yma, emal va tosh kabi elementlarning asl holatiga ozgina ham zarar yetkazmaslik mas'uliyati.

		4. Buyumni tiklash usullarini belgilashda mustaqil qaror qabul qilish: minimal aralashuv, qisman restavratsiya yoki toʻliq tiklash.
		5. Buyumning davriy xususiyatlariga mos rekonstruksiya elementlarini mustaqil yaratish.
Texnik va/yoki texnologik talab		Tarixiy yoki eski zargarlik buyumlarini tiklash jarayonida bajarilishi kerak boʻlgan asosiy texnik shartlar majmuasi. Ular buyumning asl koʻrinishini saqlash, antik texnika va materiallardan toʻgʻri foydalanish, xavfsiz va sifatli tiklash jarayonini taʼminlashga qaratilgan. Ushbu talablar ish joyi, asbob-uskunalar, materiallar, jarayon bosqichlari va xavfsizlik qoidalariga qoʻyiladigan meʼyorlarni oʻz ichiga oladi.

Kasbning nomi	Zargar-zanjir yasovchi
Mashg'ulot nomining kodi	73131
TMR bo'yicha malaka darajasi	3
Amaliy tajriba (ish staji) ga qo'yilgan talablar	Kasbga kirish uchun kamida 1-2 yil amaliy tajriba talab qilinadi, bu davrda qimmatbaho metallar bilan ishlash, sayqallash, kavsharlash va sifat nazorati ko'nikmalari shakllantiriladi. Ustoz-shogird an'anasi yoki maxsus ta'lim muassasalarida amaliy mashg'ulotlar orqali tajriba to'plash imkoniyati mavjud. Agar nomzodda rasmiy ta'lim bo'lmasa, 3-5 yillik ish tajribasi malaka darajasini tasdiqlash uchun yetarli bo'lishi mumkin.
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	Mehnat qilish huquqi, yoshi, jinsi va sog'ligi: O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq mehnat qilish huquqiga ega bo'lish. Yosh: 18 yoshdan yuqori (qimmatbaho materiallar bilan ishlash mas'uliyatini hisobga olib). Jinsi: Talab yo'q, kasb erkaklar va ayollar uchun teng darajada ochiq. Sog'liq: Yuqori aniqlikdagi ishlar uchun yaxshi ko'rish qobiliyati (lupa va mikroskop bilan ishlash uchun) va qo'l motor ko'nikmalari talab qilinadi. Allergiya (kimyoviy moddalarga) va yuqori temperaturada ishlashga to'sqinlik qiluvchi sog'liq muammolari bo'lmasligi lozim. Shaxsiy kompetensiyalar: O'zini o'zi boshqarish: Ish jarayonida vaqtni samarali boshqarish, texnologik jarayonlarga qat'iy rioya qilish va yuqori sifatli natijaga erishish uchun mas'uliyatli yondashuv.

	Hayotga va ishga moslashish: Yangi texnologiyalar (masalan, lazer kavsharlash) va uskunalarga tez moslashish, ish muhitidagi o'zgarishlarga moslashuvchan. Muammolarni hal qilish: Buyumdagi nuqsonlarni (chizish, deformatsiya) aniqlash va ularni bartaraf etish uchun mustaqil yechimlar topish. Shaxsiy vazifalarni bajarish: Estetik va funksional talablarga javob beradigan zargarlik buyumlarini yaratish, sifat standartlariga rioya qilish. Qo'shimcha ko'nikmalar: Diqqatni yuqori darajada jamlash, murakkab shakllar bilan ishlashda chidamlilik, estetik did va ijodiy yondashuv.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Milliy malaka ramkasiga muvofiq, kasbiy ta'lim muassasalarida (kollejlarda, litseylar) 1-2 yillik maxsus ta'lim olish talab qilinadi. Ta'lim yo'nalishi: "Zargarlik ishi", "Qimmatbaho metallar bilan ishlash" yoki "Hunarmandchilik".	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi	Norasmiy ta'lim: Zargarlik ustaxonalarida ustoz-shogird an'anasi orqali ko'nikmalarni egallash, maxsus kurslarda (masalan, zargarlik dizayni, sayqallash texnologiyalari) qatnashish. Informal ta'lim: O'z-o'zini o'rgatish, videodarslar, onlayn platformalar orqali zargarlik texnologiyalarini o'rganish. Milliy malaka ramkasiga muvofiq, norasmiy va informal ta'lim orqali to'plangan ko'nikmalar mustaqil baholash markazlarida tasdiqlanishi mumkin.	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi	Mavjud emas	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	3-6 razryadli Zargar-zanjir yasovchi	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	3	73131002 — Zargar (umumiy yo'nalish)
	3	73131006 — Zargarlik buyumlar bo'yicha usta
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
	O'qitish natijalari	
	Mehnat harakatlari:	
	1. Qimmatbaho qimmatbaho metal turlarini (oltin, kumush, platina, mis qotishmalari) tanlash va saralash.	

F1.3- Zargarlik buyumlarini yasash (zanjir yo'nalishi)	F1.01.3- Qimmatbaho qimmatbaho metall ardan turli xil zanjirlar va ularning qismlarini tayyorlash, bezash, payvandlash va sayqallash orqali estetik va sifat talablariga javob beradigan zargarlik mahsulotini yaratish	2. Zanjir uchun halqalar, halqachalar, bog'lovchi elementlar blankalarini tayyorlash.
		3. Zanjir uzunligini aniqlash va o'lchovlarga mos kelishini ta'minlash.
		4. Zanjirga naqsh berish, gravirovka qilish yoki dekorativ elementlar qo'shish.
		5. Estetik talablar, uzunlik, vazn va ko'rinish standartlariga mosligini baholash.
		Ko'nikmalar:
		Nozik qo'l mehnati va kichik detallar bilan ishlash bo'yicha ko'nikma.
		Turli silliqlash va sayqallash uskunalaridan (bor mashina, polirovka g'ildiragi, abrazivlar) foydalanish bo'yicha ko'nikma.
		Metallning qattiqligi va egiluvchanligiga mos asbob-uskunalarini tanlash bo'yicha ko'nikma.
		Zanjir halqalarining o'lchami va shaklini to'g'ri hisoblash bo'yicha ko'nikma.
		Issiqlik bilan ishlashda metall fizik xususiyatlarini inobatga olish bo'yicha ko'nikma.
		Har xil metall qotishmalari uchun optimal payvandlash temperaturalarini qo'llash bo'yicha ko'nikma.
		Metallning sirt sifatini buzmasdan sayqallash va pardozlash bo'yicha ko'nikma.
		Bilimlar:
		Metall zanjirlar turlari va ularning konstruktiv farqlari bo'yicha bilim
		Zanjir yasash jarayonining barcha bosqichlari va texnologiyalari
		Silliqlash, sayqallash, pardozlash va himoya qoplamalari texnologiyasi
		O'lchov va nazorat usullari
		Metall changlari, abrazivlar va kimyoviy aralashmalardan himoyalash bo'yicha bilim
	F1.02.3- Zanjir bo'g'inlarini (halqa, segment, plastinka va h.k.) aniq o'lchamda tayyorlash va qo'shish, bo'g'inlarni payvandlash, tuzilishini tekshirish va zanjir shaklida yig'ish	Mehnat harakatlari:
		1. Metallarni (oltin, kumush, platina, qotishmalar) tanlash va sifatini tekshirish.
		2. Har bir bo'g'in o'lchami va shaklini texnik talablarga mos ravishda yasash.
		3. Tayyorlangan bo'g'inlarni ketma-ketlikda joyiga qo'shib borish.
		4. Payvandlangan joylarni silliqlash, tekislash va mustahkamligini tekshirish.
		5. Bo'g'inlarni ketma-ket ulab borib, (uzluksiz) zanjir shakliga keltirish.
		6. Silliqlash, sayqallash va pardozlash orqali sirtini yakuniy holga keltirish.

		Ko'nikmalar:
		Nozik qo'l mehnati va mikrodarajadagi detallar bilan ishlash bo'yicha ko'nikma.
		Halqa, segment, plastinka kabi bo'g'inlarni yasash bo'yicha ko'nikma.
		Zanjir turiga qarab to'g'ri yig'ish ketma-ketligini tanlash bo'yicha ko'nikma.
		Metallning qattiqligiga mos asbob-uskunalarini tanlay olish bo'yicha ko'nikma.
		Payvandlash uskunalaridan xavfsiz va to'g'ri foydalanish bo'yicha ko'nikma.
		Sirtini silliqlash va sayqallash uskunalarini boshqarish bo'yicha ko'nikma.
		Bilimlar:
		Metall qizdirilganda reaksiyasi, yumshash nuqtasi, oksidlanishga moyilligi bo'yicha bilim
		Zanjir turlari: oddiy halqali, to'rsimon, murakkab naqshli, zirhli, segmentli zanjirlar bo'yicha bilim
		Kavsharlarni tayyorlash (yumshoq, o'rta, qattiq) va ularning qo'llanilishi bo'yicha bilim
		Zanjirlarning mustahkamligini tekshirish usullari bo'yicha bilim
		Estetik pardozlash va sayqallash texnologiyalari bo'yicha bilim
		Qizdirish, payvandlash, silliqlash jarayonlarida xavfsizlik qoidalar bo'yicha bilim
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Tayyorlangan bo'g'inlarning o'lchamiga qat'iy amal qilish.
		2. Qimmatbaho metallar bilan ehtiyotkor muomala qilish.
		3. Payvandlashdagi nuqsonlarni aniqlash va ularni o'zi bartaraf qilish.
		4. Zanjirning tuzilishi va elastikligini o'zi nazorat qilish.
F2.3- Zargarlik mahsulotlari ni ishlab chiqarish (zanjir yasash ixtisosligi)	F2.01.3- Zargarlik zanjirlari va ularning qismlarini ishlab chiqish jarayonlarini rejalashtirish, nazorat qilish hamda sifat talablariga mos ravishda ishlab chiqarish texnologiyasini joriy etish orqali	Mehnat harakatlari:
		1. Zanjir va uning qismlarining konstruksiyasini chizish, texnik topshiriqni shakllantirish.
		2. Ishlab chiqarish bosqichlarini ketma-ket belgilash (bo'g'in tayyorlash → yig'ish → payvandlash → pardozlash).
		3. Zanjir turlariga mos texnologik jarayonlarni tanlash.
		4. Tayyor mahsulotning sifat standartlariga muvofiqligini baholash.
		5. Zamonaviy zargar texnologiyalarini o'rganib, jarayonga joriy etish.
		Ko'nikmalar:
		Nozik mexanik jarayonlarni boshqarish va kichik detallar bilan ishlash bo'yicha ko'nikma.

	samarali va estetik mahsulot yaratish	Payvandlash va silliqlash texnologiyalarini nazorat qilish bo'yicha ko'nikma. Zanjir konstruksiyalarini to'g'ri yig'ish va tekislash ketma-ketligini bilish bo'yicha ko'nikma. Jamoaga vazifalarni aniq berish va ularning bajarilishini kuzatish bo'yicha ko'nikma. Texnik chizmalar va o'lchov asboblari bilan aniq ishlash bo'yicha ko'nikma. Sifat nazorati metodlarini qo'llay olish bo'yicha ko'nikma. Jarayon samaradorligini baholash va takomillashtirish bo'yicha ko'nikma. Bilimlar: Zanjir turlari, ularning konstruktiv farqlari va ishlash jarayoni bo'yicha bilim Metallga ishlov berish texnologiyalari bo'yicha bilim Zargarlik mahsulotlarida qo'llaniladigan texnik standartlar bo'yicha bilim Oltin, kumush, platina va boshqa qotishmalarning fizik-mexanik xususiyatlari Mahsulot standartlari va texnik reglamentlar bo'yicha bilimlar
	F2.02.3- Metall va qotishmalarning tarkibi, xossalari hamda ishlov berish usullarini aniqlash, zanjir turlariga mos texnologik kartalar va ishlab chiqarish yo'riqnomalarini tayyorlash.	Mehnat harakatlari: 1. Ishlatiladigan metall va qotishmalarning tarkibini o'rganish (oltin, kumush, platina, mis qotishmalari). 2. Metallning ishlov berishga mosligini aniqlash (bukish, cho'zish, payvandlash). 3. Zanjir turlariga mos bo'g'in tayyorlash usullarini tanlash. 4. Material sarfi, o'lchovlar va texnik talablarni aniq ko'rsatish. 5. Yig'ish, payvandlash, silliqlash va pardoqlash bo'yicha aniq ko'rsatmalar berish. Ko'nikmalar: Metall turlarini farqlash va ularni sifat jihatdan baholash bo'yicha ko'nikma. Zanjir elementlarini tayyorlash texnologiyasini chuqur tushunish bo'yicha ko'nikma. Ishlab chiqarish standartlari asosida tartibli bo'yicha ko'nikma. Jarayon samaradorligini baholash va takomillashtirish choralarini ishlab chiqish bo'yicha ko'nikma. Mehnat unumdorligiga ta'sir qiluvchi texnik va texnologik omillarni aniqlash bo'yicha ko'nikma. Bilimlar: Oltin, kumush, platina va qotishmalarning kimyoviy tarkibi bo'yicha bilim

		Qotishmalar tarkibidagi qoʻshimchalarning taʼsiri boʻyicha bilimlar
		Metallga ishlov berish usullari boʻyicha bilimlar
		Payvandlash turlari va ularning qoʻllanishi boʻyicha bilim
		Zanjir turlarining konstruktiv xususiyatlari va ularning ishlab chiqarish talablari boʻyicha bilim
		Sifat standartlari va texnik reglamentlar boʻyicha bilimlar
		Payvandlash va silliqlashda shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish boʻyicha bilimlar
	Masʼuliyat va mustaqillik:	1. Ishchilarga beriladigan yoʻriqnomalarning xavfsizlik va sifat talablari boʻyicha toʻgʻri boʻlishi.
		2. Jarayonni takomillashtirish boʻyicha tashabbus koʻrsatish.
		3. Ishlab chiqarish jarayonida yuzaga kelgan muammolarni mustaqil aniqlash va hal etish.
Texnik va/yoki texnologik talab		Texnik va texnologik talablar — bu mahsulotni loyihalash, ishlab chiqarish, yigʻish, ishlov berish, sinovdan oʻtkazish va yakuniy sifat baholash jarayonlarida bajarilishi shart boʻlgan meʼyorlar, parametrlar, koʻrsatmalar va qoidalar majmuidir. Ushbu talablar mahsulotning oʻlchamlari, shakli, materiali, mustahkamligi, xavfsizligi, ishlash xususiyatlari va estetik koʻrinishiga doir umumiy hamda maxsus koʻrsatkichlarni oʻz ichiga oladi. Texnologik talablar esa ishlab chiqarish jarayonida qoʻllaniladigan usullar, ketma-ketlik, asbob-uskunalaridan foydalanish tartibi, ishlov berish tezligi, harorat, bosim, vaqt meʼyorlari kabi jarayon parametrlarini belgilaydi. Bu talablar mahsulotning sifat standartlariga mos boʻlishini, ishlab chiqarish jarayonining izchil va barqaror amalga oshirilishini, mehnat xavfsizligi va texnika xavfsizligi normalariga rioya qilinishini taʼminlaydi.

V. Kasbiy standartning texnik ma'lumotlari

5.1. Kasbiy standartni ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot (korxona)lar to'g'risida ma'lumot

No	Ishlab chiquvchilar to'g'risida ma'lumot	
	Ish joyi va lavozimi	Familiyasi, ismi, otasining ismi
1.	"O'zbekzargarsanoati" uyushmasi raisi o'rinbosari	Salomov Dilshod Sobirjon o'g'li
2.	"Sappir" OK direktori	Inoyatov Jaxongir
3.	TDTU o'qituvchisi (Asistent)	Davlatov Baxodirjon Burxonalievich
4.	TDTU katta o'qituvchisi	Muxammedov Bobur Baxodirovich
5.	O'zbekzargarsanoati uyushmasi bosh mutaxassisi	Dusyarov Otabek Xamid o'g'li
6.	"Sofizar" MChJning yuridik bo'limi boshlig'i	Sobirov Sayfullo Sobirjon o'g'li
7.	"EAST JEWELLERY" MChJ rahbari	Pulatov Shovkat Shuxratovich
8.	"NUR STAR JEWELRY" MChJ rahbari	Nurullaev Alijon Sharafovich



INVESTITSİYALAR, BANK VA SAVDO SOHALARIDA KASBIY MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH

BO'YICHA TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART
ZARGAR